

ZAMONAVIY YOSHLAR DISKURSIDA NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Amanbayeva Jasmina Jasur qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Tarix va filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo'lish jarayonlari, ularning asosiy manbalari, yasalish usullari va funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Yoshlar nutqidagi neologizmlarning paydo bo'lishiga turtki bo'luvchi ijtimoiy-tarixiy va lingvistik omillar aniqlanadi, ularning mavzuiy guruhlari tasniflanadi.

Kalit so'zlar: neologizm, internet leksikasi, so'z yasalishi, globallashuv, til o'zgarishi, leksik yangilik, kommunikatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы появления неологизмов в языке современной молодёжи, их основные источники, способы словообразования и функционально-стилистические особенности. Определяются социально-исторические и лингвистические факторы, способствующие возникновению неологизмов в речи молодёжи, а также классифицируются их тематические группы.

Ключевые слова: неологизм, интернет-лексика, словообразование, глобализация, языковые изменения, лексическое новшество, коммуникация.

Abstract. This article analyzes the processes of the emergence of neologisms in the language of modern youth, their main sources, word-formation methods, and functional-stylistic features. It identifies the socio-historical and linguistic factors that contribute to the appearance of neologisms in youth speech and classifies their thematic groups.

Keywords: neologism, Internet vocabulary, word formation, globalization, language change, lexical innovation, communication.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida til tizimi, xususan, uning leksik qatlami sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida har qanday ijtimoiy, madaniy va texnologik yangiliklarga tezkor munosabat bildiradi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yangi so'z va iboralar – neologizmlar qisqa vaqt ichida paydo bo'lib, ommaviy nutqqa faol kirib kelmoqda.

Bugungi kunda yoshlar nutqi til taraqqiyotining eng faol va dinamik qatlamlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar tilida yuzaga kelayotgan leksik yangilanishlar nafaqat tilning ichki imkoniyatlari, balki tashqi omillar – global madaniyat, xorijiy tillar ta'siri, axborot texnologiyalari rivoji bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois, yoshlar diskursida qo'llanilayotgan neologizmlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Til jamiyat bilan birga yashaydigan, doimiy rivojlanib va yangilanib boruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Tilning barcha sathlari orasida uning leksik qatlami jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga eng tez va sezgir munosabat bildiradi. Leksika – tilning eng harakatchan, eng o'zgaruvchan qismi bo'lib, unda jamiyat hayotidagi har qanday yangilik, kashfiyot, voqea-hodisa o'z aksini topadi [1].

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda Telegram, Instagram, Facebook, TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot vositasi, balki tilning rivojlanish manbalaridan biri sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ingliz tili va boshqa xorijiy tillardan kirib kelayotgan so‘zlar qisqa vaqt ichida ommalashib, kundalik nutqda faol qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya sharoitida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, ularning manbalari va til tizimiga moslashuvi masalalari ko‘plab tadqiqotlarning markazida turibdi. Neologizm tushunchasiga oid dastlabki ilmiy yondashuvlarda yangi so‘zlar jamiyat hayotidagi yangiliklarni ifodalovchi leksik birliklar sifatida talqin etiladi [2].

Tilshunoslikda neologizmlar muammosi asosan leksikologiya va stilistika doirasida o‘rganilgan. A. Hojiyev o‘z ishlarida til lug‘at tarkibining boyishi ichki va tashqi omillar bilan bog‘liq ekanini ta’kidlab, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida ijtimoiy ehtiyoj muhim rol o‘ynashini qayd etadi [1]. Shuningdek, Sh. Rahmatullayev va E. Begmatov tadqiqotlarida yangi so‘zlarning semantik kengayishi, o‘zlashma birliklarning adabiy til me‘yorlariga moslashuvi masalalari atroflicha yoritilgan [3].

Xorijiy tilshunoslikda esa neologizmlar, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq leksik birliklar “*digital discourse*”, “*internet language*” va “*social media linguistics*” kabi yo‘nalishlar doirasida tahlil qilinadi. D. Crystal internet tilining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib, unda qisqartmalar, inglizcha o‘zlashmalar va semantik transformatsiyalarning ustunligini ko‘rsatadi [4]. Uning fikricha, ijtimoiy tarmoqlar tilning demokratlashuviga sabab bo‘lib, yangi so‘zlarning tezkor tarqalishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tavsifiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Yoshlar nutqida qo‘llanilayotgan neologizmlar internet manbalari va ijtimoiy tarmoqlardagi real diskurs asosida yig‘ilib, ularning yasaliş xususiyatlari hamda funksional jihatlari lingvistik tahlil qilindi. Shuningdek, neologizmlarning ijtimoiy va lingvistik omillar bilan bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar.

Neologizm – tilga yangi kirib kelgan so‘z yoki ibora bo‘lib, ular ko‘pincha texnologik yangiliklar, ijtimoiy hodisalar yoki madaniy tendensiyalar ta’sirida shakllanadi. Masalan: *krash, selfie, influencer, chatbot, tresh, krinj, LOL, hype, repost, vibe* singari. O‘zbek jurnalistikasida ham so‘nggi yillarda ko‘plab yangi so‘zlar faol ishlatilmoqda: *onlayn ta’lim, elektron hukumat, e-commerce, IT-park, startup, challenge, likebos, top, rofl*. Yoshlar diskursida esa neologizmlar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq: *story, reels, kontent, trend, post, like, share, vlog, bloger, kontent, storis, reels, follow, spam* kabi. Neologizmlar jurnalistik matnda: dolzarb yangilikni ifodalash, global jarayonlarga moslashish, yosh auditoriyaga yaqinlashish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Texnologik taraqqiyot asosida yuzaga kelgan neologizmlar – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji natijasida tilga kirib kelgan yangi leksik

birliklardir. Bunday neologizmlar asosan ingliz tilidan o'zlashib, global raqamli muhit bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi.

Shuningdek, texnologik neologizmlar tilning so'z yasash tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ular asosida yangi hosila birliklar paydo bo'ladi: blogerlik, onlayn dars, striming platforma, raqamlashtirish kabi. Bu esa tilning ichki imkoniyatlari va tashqi ta'sirlar o'rtasidagi o'zaro aloqani yaqqol namoyon etadi. "blogger", "onlayn", "vlog", "stream", "digital", "chatbot", "smartfon", "internet", "Wi-Fi", "blog", "vlog", "podkast", "chatbot", "dron", "kriptoalyuta", "3D printer", "striming" kabi so'zlar asosan ingliz tilidan o'zlashgan bo'lib, ular internet va raqamli kommunikatsiya sohalarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni ifodalovchi neologizmlar – "pandemiya", "karantinlash", "zudlikda yordam", "ochiq budjet", "blokpost", "globalizatsiya", "demokratiyalashuv", "korrupsiya", "sanktsiya", "migratsiya", "raqamlashtirish", "elektron hukumat", "siyosiy marketing" kabi birliklar oxirgi yillarda tez-tez ishlatilmoqda. Bu so'zlar muayyan tarixiy va global holatlar bilan bog'liq holda joriy tilga kirib kelgan.

Madaniy-maishiy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq neologizmlar – "influencer", "krossfit", "foodblog", "lifhack", "fastfud", "koverking", "frilanser", "bloggerlik", "onlayn savdo", "yetkazib berish (delivery)", "selfi, lifestyle", "influencer", "food-blogger" kabi iboralar bugungi kundagi urbanizatsiya, sog'lom turmush tarzi va yoshlar submadaniyatining tilga ta'sirini ko'rsatadi.

Internet va media neologizmlari. Internet va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan neologizmlar zamonaviy til taraqqiyotining eng faol va tez o'zgaruvchan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Bu turdagi leksik birliklar asosan ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, video platformalar va onlayn kommunikatsiya vositalari orqali shakllanadi va qisqa vaqt ichida keng ommalashadi.

Internet va media neologizmlarining asosiy xususiyati ularning tezkor tarqalishi (rapid diffusion) va global xarakterga ega ekanligi bilan belgilanadi. Bunday so'zlar ko'pincha ingliz tilidan o'zlashib, deyarli o'zgarmagan shaklda yoki qisman moslashgan holda boshqa tillarga kirib keladi. Masalan, *post, story, reels, vlog, blogger, kontent, trend, like, share, subscribe, hashtag* kabi birliklar bugungi kunda yoshlar nutqida keng qo'llanilmoqda.

Mazkur neologizmlar nafaqat yangi kommunikativ vositalarni nomlash, balki muloqot jarayonini tezlashtirish va soddalashtirish vazifasini ham bajaradi. Masalan, *like* (yoqtirish), *share* (ulashish), *follow* (kuzatish) kabi birliklar orqali foydalanuvchilar o'z munosabatini qisqa va aniq ifoda eta oladi. Bu esa tilning tejamkorlik (linguistic economy) tamoyiliga mos keladi.

Shuningdek, internet neologizmlari ko'pincha yangi so'z yasash jarayonlariga asos bo'ladi. Masalan, *blog* so'zidan *blogger, bloggerlik, Instagramdan instagramchi, YouTube'dan youtuber* kabi hosila birliklar yuzaga. Yoshlar nutqida qo'llanadigan

neologizmlar bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Nominativ vazifa – yangi paydo bo‘lgan tushuncha, predmet va hodisalarga nom berish uchun ishlatiladi: *smartfon, planshet, gadjet*. Ekspressiv vazifa – nutqqa hissiylik va ifodaviylik qo‘shadi: *zashibis, bomba, kayf*. Kommunikativ vazifa – muloqotni tez va qulay qilish, fikrni qisqa shaklda yetkazishga yordam beradi: *sps (rahmat), ok (ha, mayli)*. Ijtimoiy-psixologik vazifa – yoshlar o‘zlarini ma’lum bir guruhga mansub ekanini ko‘rsatadi va kattalar nutqidan farqlanishiga xizmat qiladi. O‘yin vazifasi – til bilan ijodiy o‘ynash natijasida yuzaga keladi: *krinj (uyatli holat)*.

Yoshlar tilidagi neologizmlarning adabiy til me‘yorlariga munosabati ikki xil baholanadi.

Ijobiy tomonlari: Neologizmlar tilning tabiiy rivojlanish jarayonining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, ular bir qator ijobiy funksiyalarni bajaradi. Avvalo, yangi so‘zlar tilning lug‘at boyligini kengaytiradi, ya’ni mavjud leksik qatlamni yangi birliklar bilan boyitadi. Bu esa tilning ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, neologizmlar nutqqa ekpressivlik va zamonaviylik ruhi bag‘ishlaydi. Ular ayniqsa yoshlar nutqida o‘ziga xoslik, individuallik va kreativlikni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada til nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-identifikatsion vazifani ham bajaradi.

Salbiy tomonlari: Shu bilan birga, neologizmlarning haddan tashqari va nazoratsiz qo‘llanilishi ayrim salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Avvalo, ular ba’zi hollarda adabiy til me‘yorlarining buzilishiga sabab bo‘ladi. Xususan, o‘zlashma so‘zlarning ortiqcha ishlatilishi milliy tilning ichki qonuniyatlariga zid kelishi mumkin.

Ikkinchidan, tilga begona unsurlar kirib kelishi natijasida lingvistik interferensiya yuzaga keladi, ya’ni xorijiy til elementlari milliy til tizimiga haddan tashqari ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa tilning o‘ziga xosligini va milliy rang-barangligini susaytirishi ehtimoli bor.

Bundan tashqari, neologizmlar turli avlod vakillari o‘rtasida kommunikativ to‘siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yoshlar tomonidan faol qo‘llanilayotgan yangi so‘zlar katta avlod vakillari uchun tushunarsiz bo‘lishi natijasida muloqotda qiyinchiliklar yuzaga keladi. [5].

Yoshlar tilida neologizmlarning paydo bo‘lishiga bir qancha obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘lmoqda. Bu omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga ajratish mumkin: ijtimoiy-tarixiy omillar va lingvistik omillar.

Ijtimoiy-tarixiy omillar. Globallashuv jarayoni natijasida ingliz tilining boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ta’siri kuchaydi. Yangi ijtimoiy-siyosiy tushunchalar, kasb-korlar, mutaxassisliklar paydo bo‘ldi: menejer, marketolog, bloger, startapchi va boshqalar.. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, YouTube kabi ijtimoiy platformalar yoshlar nutqiga kuchli tahsir ko‘rsatmoqda: *layk, folov, blog, xayp, chellenj, trend* kabi so‘zlar keng tarqaldi.

Lingvistik omillar. Tilning tejamlilik tendensiyasi natijasida ko‘plab qisqartmalar, abbreviaturalar paydo bo‘ladi: *info (informatsiya), komp(kompyuter), sps (raxmat)*. Yoshlar nutqining emotsional-ekspressiv ifodaga bo‘lgan ehtiyoji ham yangi so‘zlar yaratishga turtki bo‘ladi: *zashib (ajoyib), kruto (juda chiroyli), bomba (juda yaxshi)*. Tilning analogiya va differentsiatsiyaga intilishi ham muhim omillardan biridir [9].

Demak, yoshlar nutqidagi neologizmlar tilning tashqi va ichki rivojlanish omillari o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan tabiiy va muhim lingvistik hodisadir. Neologizmlar orqali yoshlar nafaqat yangi tushunchalarni ifodalaydi, balki o‘zining ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va madaniy qarashlarini ham namoyon etadi. Bu esa tilning identifikatsion funksiyasini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, neologizmlar tilning dinamik va moslashuvchan tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular tilning yangi kommunikativ ehtiyojlarga tez moslashishini ta’minlaydi hamda zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar nutqidagi neologizmlarni o‘rganish nafaqat leksik tizimni, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarni ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Natijada, neologizmlarni ilmiy asosda tadqiq etish, ularni tizimlashtirish va zarur hollarda me’yorlashtirish masalalari zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlar nutqida neologizmlarning paydo bo‘lishi tilning tabiiy rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u zamonaviy ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarning bevosita mahsuli hisoblanadi. Globallashuv, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida yangi leksik birliklar tezkorlik bilan shakllanib, yoshlar diskursida faol qo‘llanilmoqda. Neologizmlar tilning lug‘at boyligini kengaytiradi, yangi tushunchalarni nomlashda muhim rol o‘ynaydi hamda nutqqa ekspressivlik va zamonaviylik baxsh etadi. Shu bilan birga, ularning haddan tashqari va me’yoriy nazoratsiz qo‘llanilishi adabiy til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, begona unsurlar kirib kelishini kuchaytirishi va turli avlodlar o‘rtasida kommunikativ tafovutlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli, neologizmlarni o‘rganishda ularning lingvistik xususiyatlari, funksional vazifalari va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
2. Rahmatullayev Sh., Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Krysin L. P. Русское слово, свое и чужое. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
5. Yo‘ldoshev M. O‘zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.
6. Vinogradov, V. V. (1977). Leksikologiya i leksikografiya. Nauka. (Rus tilida)
7. Shukurov, R. O. (2008). O‘zbek tilining leksik taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Fan va Texnologiya Vazirligining Respublika Ilmiy Markazi nashriyoti.
8. Shmelyov, D. N. (1977). Sovremenniy russkii yazyk. Leksika. Prosveshchenie. (Rus tilida)

9. Rahmatullaev SH. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent:
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
11. BOBOJONOVA, S. (2024). Linguoculturology and concept. «ACTA NUUZ», 1(1.4), 296-300.
12. Dilnoza, A., & Shakhnoza, B. (2024). Interactive language learning strategies for enhancing vocabulary acquisition. Eurasian Journal of Academic Research, 4(7S), 62-66.
13. Shakhnoza, B. (2024). Psycholinguistics and educational discourse. American Journal of Philological Sciences, 4(05), 200-204.

